



## O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TEXNALOGIYALARNI TA'LIM YO'NALISHLARI BO'YICHA TAYYORLASHNING STRATEGIK VAZIFALARI

**To'lanova Nodiraxon rustamxon qizi,**  
Nizomiy nomidagi TDPU fizika matematika fakulteti  
informatika o'qitish metodikasi 4- bosqich talabasi.  
E-mail:nodiraxontolanova@gmail.com  
tel nomer:+99893 003-83-57

### Rezume.

Ushbu maqolada O'zbekistonda raqamli texnologiyalar bo'yicha kadrlar tayyorlashning asosiy ta'lim yo'nalishlari, uning rivojlanish istiqbollari va yaqin kelajakda bu soha bo'yicha qanday kasblar davlatimiz uchun zarur bo'lishi muammolari va yechimlari muhokama etiladi.

### Tayanch so'zlar.

Raqamli, texnologiyalar, kadrlar, iqtisodiyot. raqamli transformatsiya, resurslar,

### Abstract.

In this article, highlighted the main directions of training personnel on digital technologies in Uzbekistan, the prospects of development digital technologies and which kind of professions will be necessary for our state in the near future will be discussed.

### Key words.

Digital, technology, personnel, economics digital transformation, human resources.

Hozirgi davrda raqamli iqtisodiyot va u bilan bilan bog'liq bo'lgan bir qancha samarador texnologiyalar, shu jumladan, raqamli texnologiyalar hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Huddi shuning uchun ham davlat va jamiyat taraqqiyotini yanada jadallashtirish maqsadida respublikamiz rahbariyati bu sonaga mansub bo'lgan bir qancha muhim qarorlarni qabul qildi <sup>1,2</sup>. Misol sifatida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020 yil

*\*To'lanova Nodiraxon rustamxon qizi, Nizomiy nomidagi TDPU fizika matematika fakulteti informatika o'qitish metodikasi 4- bosqich talabasi.*

**E-mail:nodiraxontolanova@gmail.com**

<sup>1</sup> Аюпов Р. Х., Джуманиязова М. Ю. Цифровая трансформация в сельском хозяйстве республики Узбекистан //Международный журнал гуманитарных и естественных наук. – 2019. – №. 5-4.

<sup>2</sup> Абдуллаев С., Хажиев Б., Мамбетжанов Қ. Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш стратегияси //Архив научных исследований. – 2020. – №. 10.

25 yanvarda mamlakat taqdiri uchun ahamiyatli bo'lgan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga murojaatnomasida ham mamlakatimizda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bo'yicha quyidagi vazifalarni ko'rsatib o'tdi: "Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarish maqsadida men yurtimizda 2020 yilga "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili", deb nom berishni taklif etaman"<sup>3</sup>.

Raqamli iqtisodiyot xo'jalik yuritishning ilg'or bir zamonaviy shakli bo'lib, unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko'rinishdagi katta ma'lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi. Olingan natijalarni amaliyotda ishlatish esa an'anaviy xo'jalik yuritish shakllariga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi. Misol sifatida turli xildagi avtomatik ishlab chiqarish jarayonlarini, 3D-texnologiyasini, bulutli texnologiyalarni, masofaviy tibbiyot xizmatlari ko'rsatishni, aqilli texnologiyalar yordamida mahsulot yetishtirish va uni yetkazib berishni, turli xildagi tovarlarni saqlash va ularni elektron usulda sotish jarayonini keltirish mumkin.

Raqamli texnologiyalarni raqamli iqtisodiyot talablariga muvofiq tubdan rivojlantirish lozim. Bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalar uchun mamlakatimizning xar bir fuqorasi bilishi zarur bo'lgan raqamli texnologiya, buydjed taqsimoti, elektron to'lov tizmlari, electron bitmlarni raqamli texnologiyalar asosida amalga oshirish kabilarga amaliy jihatdan o'rgatishga qaratilgan "electron iqtisodiy bilim asoslarini o'rgatish bilim asoslarini o'rgatish metodikasi" o'quv kursni tashkil etish lozim. Ushbu o'quv kursi dasturni tuzishga Iqtisod va Informatika fani bo'yicha Tajribali professor –o'qituvchilar jalb qilinishi va mumkin qadar tezlik bilan o'quv kursni Faolyatini yo'lga qo'yish zarur.

Dunyo tajribasi ta'limda tarmoq resurslari, zamonaviy dasturlar va texnologiyalarni joriy etish, ularni isloh qilish hamda pedagog kadrlarni tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish, uning yangicha tashkiliy shakl va usullarini ishlab chiqish, uni amaliyotga bilan tatbiq etishni taqozo qilmoqda.

Malakaviy (pedagogik) amaliyot ham pedagogika OTM talabalarining yetuk, malakali mutaxassis bo'lib yetishib chiqishlari uchun eng zarur bo'lgan omillardan biri sanaladi. Amaliyot – talabalarning o'qish jarayonida olgan nazariy bilimlarni mustahkamlashga, shu bilimlarning amaliy tadbiqi bilan birga yangi ko'nikma va qobiliyatlarni egallashga qaratilgan davrda ishtirok etishini bildiradi [4].

Germaniya Federativ Respublikasida amaliyotga alohida e'tibor beriladi. Germaniyada amaliyot talabalar va maktab o'quvchilari uchun turli ahamiyatga ega. Agar maktab o'quvchilari amaliyotni ko'proq kasb-hunar yoki yo'nalishni tanlash maqsadida o'tasalar, talabalar esa ko'proq nazariy bilimlarini mustahkamlash, amalda tadbiq qilish va kelgusi ish joyini tanlash uchun o'taydilar. Korxonalar uchun esa amaliyot, yuqorida ta'kidlanganidek yosh mutaxassislarni ishga yollash, amaliyot davomida eng yaxshi mutaxassislarni tanlab olish vazifasini bajaradi. Shu sababli amaliyot korxonalar uchun ham, amaliyotchilar uchun ham zarur jarayon deb sanaladi. Amaliyotning Germaniya ta'lim tizimida bitiruvchi talabalar uchun ahamiyati katta bo'lganligi sababli Germaniya universitetlarida majburiy amaliyot

<sup>3</sup> Клаус Шваб. Четвертая промышленная революция. //М.: ЭКСМО. – 2016. – 30 стр.

semestri qo'llanib kelinadi. Xususan, Hamburg(Hamburg)ning Iqtisod va Siyosat Universitetining (HWP) magistr talabalari oxirgi semestri diplom yozish va kamida 3 oy davom etishi shart bo'lgan amaliyot o'tashga bag'ishlashlari lozim. Odatda amaliyot o'talgan bu muassasa talabalar uchun birinchi ish joyi bo'lib qoladi. Universitet qonun-qoidalarida (Pruefungsordnung) o'z o'rnini topgan amaliyot o'quv yo'nalishi bo'yicha o'talishi lozim. Ushbu qonun-qoidalarga asosan, amaliyot o'talmaguncha o'qish tugallanmagan hisoblanadi va diplom berilmaydi. Amaliyot tugagach xisobot (Praktikumsbericht) yozilishi lozim. Xisobot talabalarining amaliyot davomida nazariy bilimlarini qanchalik ustalik bilan amalda tatbiq eta olganliklari, shu jumladan, o'qish jarayonidagi kamchiliklarni bartaraf etib uni amaliyotga yaqinlashtirish uchun kerak bo'ladi<sup>4</sup>.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Аюпов Р. Х., Джуманиязова М. Ю. Цифровая трансформация в сельском хозяйстве республики Узбекистан //Международный журнал гуманитарных и естественных наук. – 2019. – №. 5-4.
2. Абдуллаев С., Хажиев Б., Мамбетжанов Қ. Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш стратегияси //Архив научных исследований. – 2020. – №. 10.
3. Клаус Шваб. Четвертая промышленная революция. //М.: ЭКСМО. – 2016. – 30 стр.
4. Иномхўжаев А.Р.. Практиканинг студентлар ва корхоналар учун ахамияти // Чет эл олий ўқув юртларида таълим олган ёш мутахассисларнинг IV конференцияси тезислари тўплами. – Тошкент, 2006, XIX том. –Б. 87-91.

---

<sup>4</sup> **Иномхўжаев А.Р..** Практиканинг студентлар ва корхоналар учун ахамияти // Чет эл олий ўқув юртларида таълим олган ёш мутахассисларнинг IV конференцияси тезислари тўплами. – Тошкент, 2006, XIX том. –Б. 87-91.